

S H O I R Q A L B I Y

Abdulaziz Mamadaliyev

I Z T I R O B

*Isiq suratin dilim yuzidan,
Afsus endi o'chirolmayman...*

ABDULAZIZ MAMADALIYEV

IZTIROB

Shoirning qalb nidolari

«Saboq» jurnali bosh tahririyati

Toshkent – 2021 yil

USTOZ

Ilk bora maktabga borgan chog'imda,
Bizlarga kitobdek bag'rini ochgan.
Ilmning quyoshdek nurini sochgan,
Ul zotni har qancha e'zozlasang oz,
Otangdan ulug'dir azizdir ustoz.

Bizlarga ayamay mehrini bergan,
Bilim ziyosini sehrini bergan.
Dillarga kitobning muhrini bergan.
Ul zotni har qancha e'zozlasang oz,
Otangdan ulug'dir azizdir ustoz.

Yuragi misoli mehr to'la kon,
Hayotda edilar fidoyi inson.
Biz uchun xattoki berar edi jon.
Ul zotni har qancha e'zozlasang oz,
Otangdan ulug'dir azizdir ustoz.

Biringiz shifokor fazogir bo'ling,
Zo'r qalam sohibi musavvir bo'ling.

Har ishda der edi siz mohir bo‘ling,
Ul zotni har qancha e‘zozlasang oz,
Otangdan ulug‘dir azizdir ustoz.

Aqlimiz sozlardi sozlagandek soz,
Borini bizlarga qilardi niyoz.
Dunyoda ustozga topilmas qiyos,
Ul zotni har qancha e‘zozlasang oz,
Otangdan ulug‘dir azizdir ustoz.

KELAJAK UCHUN

Armonlarga aylandi,
Kitobli durdonalar.
Nazmu-nasr olami,
Bo‘lgan kutubxonalar.

Qishloqlarda buzildi,
Kitoblarning makoni.
O‘rnida bino bo‘ldi,
Oziq – ovqat do‘koni.

Endi qishloq yoshlari,
Tanimas Shekspirni.
Miriqib o‘qiy olmas,
Dengizchi gulliverni.

Tushimizda ko‘ramiz,
Endi “Ming bir kecha” ni.
O‘qiydigan kitob yo‘q,
Changitamiz ko‘chani.

Ey ahli O‘zbekiston,
Qo‘lni qo‘lga beraylik.
Kelajak avlod uchun,
Kutubxona quraylik.

Yurtimiz bolalari,
Kitobsevar bo‘lishsin.
Siz-u bizga rahmat deb,
Bepul kitob o‘qishsin.

MEN UCHUN

(muhammas)

Tarix kitobida yozilsa nomim,
O‘zimni eng baxtli inson bilardim.
Vujudimda urgan yurakni mudom,
Ona vatan uchun fido qilardim.

Tog‘larda doimo maqtanib xusnin,
Hamisha ochilib tursin lolalar.
Pariju – Londondan menga azizroq,
Qishloqdagi oddiy bedapoyalar.

Misrning purviqor ehromlaridan,
A‘loroq men uchun qo‘ldagi ketmon.
Olamga dovrug‘i ketgan shoxlardan,
Men uchun hurmatli oddiy bir dehqon!



OTA

Bolam deb kuyinar – goho suyinar,
Ilojin topsa gar jonini berar.
Farzand kamol ko‘rganda yig‘lab,
Quvonib mardona ko‘ksini kerar.

Bu zotning siymosi naqadar aziz,
Poyiga yuzing bossangda kamdir.
Hayot yo‘llarida bir so‘zli qa‘tiy,
Otalar shubhasiz oliy hakamdir.

Og‘zidagi nonini bolamga deydi,
Kaftida oshini bolamga deydi.
Ko‘ksidagi yurak mehr to‘la kon,
Ota dunyodagi eng buyuk inson.

XAYRATON

Amudaryo ustida,
To'kib ulkan savlatin.
Asrar buyuk o'zbekning,
Zo'r qudratli davlatin.

O'zbek-afg'on diyorin,
Beg'ubor bo'stonasi.
Ikkisin orasinda,
Pokiza ostonasi.

Ostida jayhundaryo,
Suvlari jo'shqin oqin.
Ikki millat hayotin,
Doimo qilar sokin.

Mashhur azim "xayraton",
Faxrimizdir u bizning.
Dong'i ketgan dunyoga,
Ko'rki ona Termizning.

BERMANG

Titraydi noiloj qo‘limda qalam,
Qalbimni o‘rtaydi azobli alam.
Dillar ziyodan ayrilsa agar,
Zulmatga qul bo‘lar olam.

Muallimni yig‘latar afsus,
Ilmdan xabarsiz bola.
Savodsiz bo‘lsa gar ulus,
Yangrar dilda alamli nola.

Internet o‘rgimchak to‘ri,
Keldi-yu quridi kitobning sho‘ri.
Qayda qoldi ayting odamlar,
"You tube" siz olam g‘ururi.

Telegramga mukkaga ketib,
Internetdan ilova termang.
Ko‘zingizni oching odamlar,
Bolalarga telefon bermang.

VATAN BEBAHO

Aylanib qoladi hayot zarbidan,
Odamning fikru – hayoli goho.
Mard odam sotmas vatanni,
Chunki vatan bitta vatan bebaho

Devona bo‘lsa gado bo‘lsa ham,
Ayriliq zahmidan ado bo‘lsa ham
Firoq sahrosida ayro bo‘lsa ham,
Vatani sotmaydi vatan bebaho.

Parij minorasi o‘tsin oldidan,
Misr ehromlari o‘tsin oldidan.
Tojmahal saroyi o‘tsin oldidan,
Vatanim tanhodir vatan bebaho.

Quyoshga o‘xshar o‘zbekistonim,
Qadim turkiston-u buyuk turonim
Tarixda qudratli bo‘lgan bo‘ronim
Vatanim tanhodir vatan bebaho.

ARMON

Men yozaman dardimni bitib,
Tashnalgim ichimga yutib.
Umr o‘tib bormoqda ahir,
Qololmayman hayotni tutib.

Bolalik onlarim o‘tib ketdida,
O‘tmishda orzular qolib ketdida
Bolalik – podsholik armondir endi
Armon dilga alam solib ketdida.

Maktabda sinfni changitar edik
Ustozni bilmasdan ranjitar edik.
U kunni afsus endi ko‘rmaymiz
Ustozdan bir umr uzr so‘raymiz.



E'ZOZ

(Abdulla Oripov xotirasiga)

Tarixda bu inson haqida,
Ko'p ma'noli gaplar aytilgan.
Zo'r iste'dod sohibi deya,
She'riyatda ta'rif etilgan.

Ko'zda yosh madhiya bitgan,
Singunicha qo'lida qalam.
Be ayov yillar suronida,
Bexisob chekkandi alam.

Yulduzlarga to'ldirgan edi,
Har bir yozgan she'ri samoni.

Ulug' xalq shoiri bo'ldi,
Millat va yurt qahramoni.

She'riyat bog'boni edi,
Gullatdi hur nazmu – navoni.
Unutmas kelajak bu allomani,
Abdulla Orif boboni

MILLAT TIMSOLI

(Abdulla Oripov xotirasiga)

Bu zoti sharif sohibi vijdon,
Qalami tinmasdi yozib beomon.
Sinmadi xattoki tarix qarida,
Tugasada qo'lida darmon.

Abdulla Oripov bu ism va nom,
Tarix kitobida buyuk bir timsol.
Kelajak uchun dostonlar bitgan,
Madhiya bunga bir zo'r misol.

Ustozni yod etmoq ulug' ish,
Bu bizga emasdir tashvish.

So‘nggi nafasgacha vatanni dedi,
Doimo fidokor qahramon edi.

Buyuk qalb egasi sohibi qalam,
Qo‘ygandi ozodlik tamal toshini.
Doimo istiqlol nafasi ila yashadi,
Sho‘rolar davrida boshin egmadi.

NOLA

Juda istar edim baxtli bo'lishni,
Dunyoda baxtiyor bo'lib o'lishni.
Ammo netay qalbim o'zgacha,
Xohlaydi hamisha tirik qolishni.

Nolalar,fig'onlar faryod urishlar,
Barmoq orasidan nigox ko'rishlar
Bari bir kun tugar intixo bo'lib,
Kim yig'lar ketsam gar o'lib.

Yonimda do'stlar ko'p juda,
Ammo umrim o'tar bexuda.
Turmoq qiyin ekan baxt saroyida,
Armon pinxon ekan yor chiroyida

....

Ko‘rinmaydi aslida orzu,
Har yerda bor taroz-u.
O‘tib ketar umr misoli,
Darayodagi oqar suv.

Hayot tashvishlari oxiri,
Yo‘qdek men uchun.
Bir kuni ketarman kechib,
Orzudan chiqarmasdan un.

Qadrim baland emas,
Oddiy bir odamman xolos.
Erta ketsam agar dunyodan,
Bilingki umrim misoli gilos...

KO‘KLAM VA UMR FASLI

So‘rab ko‘ring taqdirdan siz,
Bori xasrat dardni aytib.
Fasli baxor qaytib kelar,
Umr fasli kelmas qaytib.

Baxor bilan qushlar kelar,
Ko‘klam sabo yana elar.
Ko‘kalamzor bo‘lar erlar,
Umr fasli kelmas qaytib.

Qaldirg‘ochlar qaytar uchib,
Qir-adirlar gullar quchib.
Baxor quyosh nurlar sochib,
Umr fasli kelmas qaytib.

YOMG'IR

Umr xuddi yomg'irga o'xshar,
Tomchilardan poyandoz to'shar.
Goxda alam, goxda quvonch,
Yomg'ir kabi har yonda toshar.

Jala kabi qolsa gar quyib,
Xo'l noplsada dil qolar kuyib.
O'qisanggiz foyda ko'p deya,
Aytar edi ustoz kuyunib.

Exxe hurmatli muhtaram ustoz,
Siz beg'ubor ekansiz yomg'ir.
Ketardingiz quvonchdan yonib,
Xayotda gar bo'lsanggiz hozir.

ZUMRAD BAHOR

Yana keldi bir zumrad baxor,
Lolazorga aylandi tog'lar.
Nurga to'lib subxidam tonglar,
Gul iforga burkandi bog'lar.

Erib zamin uzra oppoq qor,
Chimbarg yozdi nim maysazorlar.
Ko'kdan yog'ib baxor yomg'iri,
Til va dildan ketdi g'uborlar.

Ko'klam misli yashil bir qalam,
Baxor esa moxir musavvir.
Ko'mko'k rangga bo'yanib olam,
Chizgandek bir betakror tasvir.

YANA BODOM GULLADI

Borliqni kezadi ko‘klam nafasi,
Shodliklarga to‘ldi yurak qafasi.
Fasllar sarvari gulgun baxorga,
Go‘zal qizlarning ham kelar xavasi.

Endi kiyishadi yam-yashil libos,
Barcha dov-daraxtlar tol va teraklar.
Dalalarga oshiqar sho‘x bolajonlar,
Uchirishar ko‘kda turfa varraklar.

Yana bog‘da bodom gulladi oppoq,
G‘uncha tugdi xatto o‘rik qirmizrang.
Shunday nafosatli ajib maftunkor,
Ko‘zingiz quvnaydi siz ham bir qarang.

QOLAR

Bu kun ham o‘tar ketar,
Dilda muhabbat qolar.
Boshga tushib ko‘z ko‘rgan,
Og‘ir musibat qolar.

Ko‘nggil ichinda pinxon,
Vafo sadoqat qolar.
Dillarga sochgan ziyo,
Haqqi saodat qolar.

Ezgulikdan nishona,
Vijdon diyonat qolar.
Ollox uchun qilingan,
Toza ibodat qolar.

Ushalmagan orzular,
Shirin bir armon qolar.
Jannat tomon yo‘l ochgan,
Pokiza iymon qolar.

QADR

Ko'nggil dardlari denggiz to'lqinidek,
Nomalum sarxadlar uzra oshmoqda.
Alamli xayotning muammolari,
Yuragimni ezib xadsiz toshmoqda.

Dardkash do'stlaring ham topilmas bu on,
Yolgizlik vahshidan qalbim to'la qon.
Chigallik,imkonsiz umidsizlikdan,
Gumonlar jonimni qo'ymaydi omon.

Turmushning tashvishi etishmovchilik,
Pul topish naqadar qiyinda afsus.
Orzular armonga aylanib borar,
O'chmoqda orzu deb atalmish fonus.

Davlating bo'lmasa puling bo'lmasa,
Senga xatto gado salom bermaydi.
Eng yaxshi eng xalol inson bo'lsang ham,
Qadirdon do'stlar ham qadring bilmaydi.

Qishloqlar sen uchun tor bo‘lib qolar,
Shaxarlar xolingga rahm qilmaydi.
Mehnatkash pokdomon dilli bo‘lsangda,
Seni nazariga hech kim ilmaydi.

TONG YULDUZI

Bolalikdan xotira,
Orzuning tiniq yuzi.
Ma'noli har bir so'zi,
Shubxasiz tong yulduzi.

Hamroxdir bolalikdan,
Beg'ubor beboshlikdan.
O'tgan shirin yoshlikdan,
Qadirdon tong yulduzi.

U bilan g'amlar ketar,
U bilan oylar o'tar.
U bilan tonglar otar,
Subhidam tong yulduzi.

Ma'zmuni daryo azim,
Yurakdan aytay so'zim.
Bosh egib qilay tazim,
Muhtaram tong yulduzi.

OTA VA ONA

Bu oʻtkinchi dunyoda,
Azizdir ota-ona.
Qizmi-oʻgʻil farqi yoʻq,
Farzandiga parvona.

Ota poyida duo,
Ona poyida jannat.
To bir umrga qilaylik,
Ota-onaga himmat.

Koʻrmasinlar xayotda,
Bu zotlar aslo gʻurbat.
Oyogʻiga bosh qoʻyib,
Qilaylik doim hurmat.

Ularga xizmat qilmoq,
Xayotda qarzimizdir.
Ollox bizga buyurgan,
Eng buyuk farzimizdir.

ONAJON

Onajon sizni sog'indim,
Ko'rgim kelmoqdadir har kuni har on.
Siz kabi dunyoda yo'qdur jonajon,
Mehringgizga tashna bo'ldim onajon.

Siz mening xayotim koshonasisiz,
Koshonam xuvillar siz bo'lmasanggiz.
Yoninggizga qaytaman topolsam imkon,
Mehringgizga tashna bo'ldim onajon.

Siz bilan go'zaldir umr bog'lari,
Siz bilan purviqor sabr tog'lari.
Baxtinga otamla bo'ling siz omon,
Mehringgizga tashna bo'ldim onajon.

RAMAZON MUBORAK

Bugundan ro'zani tutmoq kerak,
Olloxdan so'rab ezgu tilak.
Charog'on bo'lar endi falak,
Hur ramazon muborak.

Shayton qo'li bog'lanar,
Mo'min ko'ngli chog'lanar.
Bu oy iymon toblanar,
Hur ramazon muborak.

Ro'za tutmoq bizga farz,
Ollox oldidagi qarz.
Bu oyda qilmang araz,
Hur ramazon muborak.

Dillardan g'ubor ketsin,
Shukr olloxga etsin.
Jannatlar nasib etsin,
Hur ramazon muborak.

ARMUG'ON

Ko'zlar quvonadiyu
Qalbim yig'laydi.
Hijronning azoblari
Ko'ksim tig'laydi.

Ammo siz kabi
Qadirdonlar bor.
Siz borsiz bu dunyo
Menga bo'lmas tor.

Sinovlar o'tadi
O'tar bu kunlar.
Osuda bo'ladi
Oqshomli tunlar.

O'tkinchi dunyoda
Bo'linglar omon.
Ezgu tilaklarim
Sizga armug'on...

ASSALOM RO‘ZG‘OR

Yurakdagi armonlarimni
Tayga botqog'iga ko'mib ketaman.
Noumid bo'lmayman endi hech qachon,
Ezgu niyatimga albat etaman.

Qalbim sirlarini qilmayman oshkor,
Foydasi yo'q aytmoqni barchasi bekor.
Dardingni dasturhon qilganing bilan,
Toshbag'ir do'stlarha qilmas sira kor.

Xayot o'tib borar daryo suvidek,
Tugaydi bir kuni uzoq umr ham.
Tog'larga qo'shilib bo'ladi talqon,
Dildagi metindek ulkan sabr ham.

Endi meni yuragimda qon tomirimda,
Armonlar jo'sh urib oqa olmaydi.
Xattoki oradan ming yil o'tsa ham,
Ko'ksimda hech o'chmas dog' bo'p qolmaydi.

Qismatim shu mening mardikorchilik,
Mardikor bo'lmoqdan qilmam sira or.
Muhabbat yoshidan o'tib bo'lganman,
Alvido muhabbat assalom ro'zg'or.

ONA

Poyida jannat yotar,
U Rasulning onasi.
Haqning qadriga etar,
U iymonning soyasi.

Ikki olam orasinda,
Tug'iladi bolasi.
Dunyolarni titratar,
Uning mungli nolasi.

Ona muqaddas inson,
Etmang uni bag'ri qon.
Ona dilin og'ritgan,
Dunyoda qolmas omon.

Onalarni muqaddas,
Bilishar ahli iymon.
Poyi boshlab boradi,
Jannat manzili tomon...

BU YERDA

Kecha kirgan edim ishq bozoriga,
Sevgi savdogarin uchratdim unda.
Gul kabi sevginini sotar ekanda,
Vafosiz muhabbat sotilar kunda.

Bozorda ko'p ekan jirkanch xiyonat,
Rastalarda yo'q ekan ibo va hayo.
Pokiza muhabbat yig'laydi bunda,
Bozor xo'jayini ekan behayo.

Sadoqat bu yerda chekadi fig'on,
Visolni o'rnida o'tirar xijron.
Bunda oshiq dili kuyib kul bo'lgan,
Chin sevgi o'rnida yashaydi armon.

Bu joyda Farxod va Shirin bo'lmaydi,
Layli va Majnunni hech kim bilmaydi.
Muhabbat kuychisi Shayx Sadiyni,
Bu makon manzilda hech kim tanimaydi.

Bu joyda sof sevgi oxlar uradi,
Muhabbatning qadri misoli bir pul.

Bu joyda xajr va firoq ekan shox,
Sadoqat-diyonat bunda ekan qul...

ACHCHIQ HAQIQATLAR

Hayo qolmabdi bugun,
Ishq sotilar bozorda.
Gul o'rnida ochilar,
Xayvoniy xirs gulzorda.

Yozar qissa bexayo,
Portalda yigit va qiz.
Andisha ne bilishmas,
Uyatni qilishmas xis.

Internetda er izlab,
Raqamini yozadi.
Xayosi yo'q go'zallar,
Gul turmushni buzadi.

Virtual olamdagi,
Dillar bo'ladi mayus.
Simglisin tanimagan,
Yigit emas u dayus.

Zinoni targ'ib qilar,
Xikoya yozgan maraz.

Yangasin sevgan emish,
U asli erkak emas.

Portalga kirib olib,
Xikoyalar yozishar.
Faqat zinoni ko'zlab,
Ular olam kezishar.

Ahir haqiqiy yigit,
O'z mahramin qizg'onar.
O'z ayolin sotmoqda,
Iymoni yo'q bachchag'ar.

Eri turib o'ynashga,
O'zin qilgan bahshida.
Xotin bilan yashashdan,
Xayvon bo'lgan yaxshida.

Bunday nokaslardan meni,
Ey xudo qilgin yiroq.
Nomusli bandalarga
Meni qilgin yaqinroq.

Yusel kompaniyasi,
Sizlardan bir iltimos.

Internetda yozilsin,
Hikoya poklikka xos.

Ko'ngillarda zinomas,
Chin muhabbat yashasin.
O'zbekning yigit-qizi,
Chin odamga o'xshasin.

QIZLARIM

*Qalbimni gavxari yuragim toji,
Aziz farzandlarim asal qizlarim.
Umrinning mazmuni shakar qizlarim.*

Beg'ubor qalbli bolalar,
Orzular tog'ida o'sgan lolalar.
Ularga begona bo'lsin nolalar,
Aziz farzandlarim asal qizlarim.

Ular To'marisning izdoshlaridir,
Onalarning eng yaqin sirdoshlaridir.
Yurtimning kelajak hur yoshlaridir,
Aziz farzandlarim asal qizlarim.

Ulardir xayotimda go'zal bezaklar,
To'ledan berilgan hur kelajaklar.
Olloxni bergani juft egizaklar,
Aziz farzandlarim shakar qizlarim.

OLTIN KUZ

Dunyoda vatan ko'p judayam go'zal,
Lek mehrim bo'lakcha ona erimga.
Oltin kuz qo'ynida etakni tutib,
Tong saxar chiqqandim paxta terimga.

Ajib bir ehtiros qalbimni bosgan,
O'shal on,o'sha kun yodimdan chiqmas.
Oppoq paxtazorni chiroyin ko'rib,
Quvonchu shodligim ichimga sig'mas.

Naqadar go'zaldir bu ajoyib kuz,
Boshimda aylanar ajib bir o'ylar.
Bog'larda,shoxlarda shitirlab xazon,
Oltin kuz haqida bir ertak so'ylar.

VIJDON

Insonning qalbidir toza vijdoni,
Insonning qalbidir pokdon iymoni.

Taqdirga bitilmish nadomatlar bor,
Xayotda tosh kabi malomatlar bor.

Lek inson vijdoni pokiza bo'lsa,
Ajriga ajoyib saodatlar bor.

Shunaqa ekanda dunyoning ishi,
Tugamas ekan hech turmush tashvishi.

Kimnidir yiqitar kimnidir maqtar,
Tillarda ovoza bo'lgan mishmishi.

Alamdan laxta qon bo'lsa hamki jon,
Vijdoning sotma ey xazrati inson.

MO'MIYO

Yana bir yil o'tdi oradan,
Ming yil o'tib ketgandek go'yo.
Dilga malham topgandim sendan,
So'zlaringdan qilib mo'miyo.

Exxe yigirma yil bo'libdi seni,
Uchratib so'ng yo'qotganimga.
Cho'g' bag'ringda rosa isinib,
So'ng qaltirab sovqotganimga.

O'shanda ex sen bilan birga,
Keng dalada paxta terardik.
Paxtamizni ivitib suvga,
Tabelchini chuv tushirardik.

Terim bilan ovora bo'lib,
Bir kun rosa selda qolgandik.
Lekin bunga parvo ham qilmay,
Ishq labidan bo'sa olgandik.

Muhabbatdan yorug' bo'lgandi,
Qalbimizning sarg'aygan afti.

Yuragimni kuydirar hamon,
O'shal qaynoq bo'saning tafti.

Qaylardasan nido ber jonim,
Kelsang agar poying o'payin.
Manzilingni so'ramagandim,
Endi seni qaydan topayin.

Ex shaddod qizgina,
Taqdir bizni ayirdi essiz.
Yshayapman xinjon dog'ida,
Ex ,men Qalbiy sensiz.

Yana bir yil o'tdi oradan,
Ming yil o'tib ketgandek go'yo.
Dilga malham topgandim sendan,
So'zlaringdan qilib mo'miyo.

CHEKSIZ MUHABBAT

Tong saxar shabnam qo'ynida,
Uyg'onib samoga termulib qoldim.
Muhabbat bulog'in suvidan ichib,
Sevgi sog'inchidan xayolga toldim.

Ayriliq oshiqqa bir dunyo azob,
Yor qadrin bilmagan kazzob.
Naxot men qilmasam vafo,
Muhabbat dardidan chekarman jafo.

Mening muhabbatim cheksiz bir ummon,
Majnunu-Farxodlar mendan o'tolmas.
Vafo vodiysida ming yugursa ham,
Visolga men kabi ular etolmas.

SIZDEK ODIL PODSHOH

O'zbeklar chiqmay qo'ysin,
Boy bo'lishib o'zga elga.
Quvonch to'lsin yuraklarga
Shodlik to'lsin endi dilga.

Xalq boy bo'lsin deb,
Yonib-kuyib yashayapsiz.
Mehnatsevar xalqimizni,
Yaxshi ko'rib hushlayapsiz

Umid o'tin yoqmoqdasiz,
Haq deb yongan el ichiga.
Hol-ahvolin so'rab biling,
Kelib tuman Baliqchiga.

Rahmat sizga ey hurmatli
Elboshimiz Shavkat bobo.
El dardiga darmon bo'lgan,
Dildoshimiz Shavkat bobo.

Sizdek odil, dono-haqdil,
Podshox berdi Ollox bizga.

Baxtlidurmiz, baxtimizga,
Bersin umr Ollox sizga.

Diqqat bilan tinglayapsiz,
Xalqdan kelgan oxu-zorni.
Bir bor qo'llab yuborsangiz,
Koshki mendek mardikorni...

XIYONATNI

Vaqt qudratliyu lekin,
Taqdiringni o'chirolmaydi.
Er kishi qalbi toshmas lek,
Hiyonatni kechirolmaydi.

Tog'larni talqon qiladi,
Poholni somon qiladi.
O'ngni chap tomon qiladi,
Hiyonatni kechirolmaydi.

Bola deb g'ururdan kechar,
Ro'zg'or deb zaharni ichar.
Baxt uchun ajalni quchar,
Hiyonatni kechirolmaydi.

Hijronlarga beradi bardosh,
Yori uchun misoli quyosh.
Besabab emas bag'ritosh,
Hiyonatni kechirolmaydi.

Vijdoni pok puli yo'q erkak,
Ayoliga bo'lsa ham ermak.

Homkalla bo'lsada hamak,
Hiyonatni kechirolmaydi.

O‘ZBEKLAR

Olis makon manzillarda,
Ishlamoqda o'zbeklar.
Tandirnonmas buhankani,
Tishlamoqda o'zbeklar.

Ro'zg'or tirikchilik deb,
Turmushni g'amini eb.
Kiyimiga bermay zeb,
Ishlamoqda o'zbeklar.

Hotirjamlik hollar yo'q,
Rusda majnuntollar yo'q.
Qishloqda eh dollir yo'q,
Ishlamoqda o'zbeklar.

Moskovda kuni o'tar,
Sog'inch dilini o'rtar.
Qizin oliygohda o'qitar,
Ishlamoqda o'zbeklar.

Ish yo'qda qishlog'ida,
Alamlar quchog'ida.

Ruslarning tuprog'ida,
Ishlamoqda o'zbeklar...

O'ZBEK ONASI

Bahorning osmoni kabi,
Boshingda doim parvona.
Tunni tongga ulab saharda
Issiq nonlar yopadi ona.

Ko'zlarida-yuzlarida nur,
Qo'llari qor kabi oppoq.
Erini ro'zg'orni jirkanmay,
Yuvsam ham kunora paypoq

Tong sahar chog'ida turib,
Ostona ko'cha supurar.
Uyqudan uyg'onib boqsang
Onadan baxoriy ifor ufurar.

Yagona qalbing gavhari,
Ko'ngilni zo'r durdonasi.
Dunyoda tanhodir beshak,
O'zbekning buyuk onasi.



AYRILIQ

(X.To'xtaboev xotirasiga)

Qancha roman qissalar,
Yozib bizga tuhfa etdilar.
"Jannatiy odamlar"dek,
Chin dunyoga ketdilar.

Eng so'ngi nafasgacha,
Asar yozdilar Ustoz.
"Besh bolali yigitcha.
Qoldi ulardan meros.

Akrom Akromiy kabi,
Shirin qovun ekardi.
Yoki Hoshimjon bilan,
Ko'sak qurti to'kardi.

Sehirli qalpoqchani,
Bizga tashlab ketdilar.
Milionlab kitobhonni,
Ko'zin yoshlab ketdilar.

ORZULAR YOMG'IRI

Yog'ayapti shalola bo'lib,
Xayollarni ikkiga bo'lib.
Armonlarga ketdi aylanib,
Orzular yomg'iri to'lib.

Shalabbodir ko'ngilni sochi
Ko'kka o'rlar yuragim ohi.
Ko'rinmaydi samo bag'rida
Hilol degan osmonni mohi.

Yomg'irlardan yuvilib yotar
Ishqdan hira ko'ngil oynasi
Pana deb kirganing qora,
Zulmat ekan sevgihonasi.

Orzularni yomg'iri endi,
Dil kubasin shiftiga yog'ar.
Hijronlarni asoratlarin,
Koksimdagi alamlar yig'ar.

QISHLOQDA

Qishloqdagi honadonlarda,
Tandirlarga o'tlar yoqilsin.
Tong saxarda ona qo'lidan,
Issiqqina nonlar yopilsin.

Tomorqada gurkirab tursin,
Katoshka piyoz handalak.
Ekinlari mo'l bo'lsin serob,
Pomidorlar otishsin palak.

Dehqonlari qo'li ko'ksida,
Taklif qilib tursin kapaga.
Qovun ila tarvuz paykalga,
Jala bo'lib yog'sin baraka.

Pishiqchilik payti kelganda
Qovun sayli qilib boraylik.
Obinovvot shakarpalakdan
Tanovullar qilib kelaylik.

MASJIDNI QURGANLAR

Qo'lingiz dard ko'rmasin,
Qishloqdosh birodarlar.
Ollox baytini qurgan,
Iymondosh birodarlar.

Muhammadjon domladan,
Duolar oldingiz ho'p.
Jannat tomon yo'l olgan,
Saf aro bo'lingiz ko'p.

Masjidga g'isht terganlar,
Trovertin suvoq qilganlar.
Tahorathona qurganlar,
Ollox sizlardan rozi bo'lsin.

Qozonda osh pishirgan,
Ustalarni shoshirgan.
Yordam uchun qo'shilgan,
Ollox sizlardan rozi bo'lsin.

Shlakablok urganlar,
Go'zal devor qurganlar.
Hasharga deb yurganlar,
Ollox sizlardan rozi bo'lsin.

Simyog'ochlar o'rnatgan,
Tunga chiroq yoritgan.
Horma deb yo'ldan o'tgan,
Ollox sizlardan rozi bo'lsin.

Biz aytgan istig'forlar,
Olloxga borib etsin.
Shu masjidni qurganlar,
Jannatga kirib ketsin.

AFZALDIR

Sen gar qiroлча bo'lsang bu vaqt,
Men gado bo'lmoqqa tayyorman shu on.

Sen uchun sitamlar ummoni uzra,
Suzmoqqa tayyorman so'zimga ishon.

Sen erdagi oy bo'lib kulsang,
men sen uchun quyosh bo'laman.
Qanoat tog'ining cho'qqisi kabi,
Ko'ksingda tuganmas bardosh bo'laman.

Zulmatli kechani yoritgan fonus,
Ko'kdagi yagona zuhro yulduzim.
Sen bo'lmasang hardam yonimda,
Xalovatsiz o'tar kecham kunduzim.

Sensiz gulzorimda ochilmas g'uncha,
Qiyneysan xolimni ko'rib sen buncha.
Ko'ngling yumshoq bag'ri kengsanu,
O'zingni bag'ritosh qilding namuncha.

Axir seni o'zimdanda ham yaxshi ko'raman,
Joiz emas qahringni ko'rmoq.
Dilingni og'ritib yashashdan ko'ra,
Afzaldir arslonni og'zida o'lmoq.

JANNATLARDA

(rafiqamga)

O'tmishda qolmagan haqiqiy sevgi,
Layli seni ko'rsa qilardi xavas.
Men majnun emasman biroq,
Armon yuragimga chang solmasa bas.

Sensan xayotimni ma'no-ma'zmuni,
Xokisor ko'nglimni tanxo egasi.
Olamda yagona vafodorimsan,
Nurli oilamning go'zal bekasi.

Sendan ayirmasin meni bu taqdir,
Xijron dardin dilga solmasin xayot.
Yuz yil bo'lsa bersin bizlarga umr,
Oramizga tushmasin bemavrid mamot.

Farzandlarimning mehriboni sen,
Sensan yuragimning qirolichasi.
Ikkiikmiz uchun doimo ochiq,
Bo'lsin baxt qasrining eshik darchasi.

Sakson-to'qson yoshga kirganda,
Qo'sha-qarib birga o'laylik,
Olloxning rahmatidan nasiba olib,
Jannatlarda mudom birga bo'laylik.

RO'MOL

Yorimning gul ro'moli,
To'zmasmikan qirg'og'i.
Yuragimni kuydirgan,
Qoshi bilan qovog'i.

Zilol buloq suvidek,
Tiniq edi yuzlari.
Bolarining bolidek,
Asal edi so'zlari.

Kun qizarib botardi,
Oy bo'zarib boqardi.
Uning o'tli nigoxi,
Dilga olov yoqardi.

Qiyo boqmay ketdi yor,
Ul bevafo bag'ritosh.
Qo'limda qoldi ro'mol,
Ko'zlarimdan oqib yosh.

Yor-yor aytib yangalar,
Niyatiga etdilar.
Yap-yangi ro'mol berib,
Yorni olib ketdilar.

Yor ketardi nozlanib,
Boshida oppoq ro'mol.
Unga atalgan sevgim,
Qoldiku bo'lib uvol.

Ro'moli bor yorimo,
Etmad unga zorimo.
Isgqida zor uzildi,
Qo'limdagi torimo.

Ox ketdi qilmay rahm,
Ul qoshlari kamonim.
Qoldi bir dunyo bo'lob,
To'lib dilda armonim.

Shu kindan beri doim,
Xayolimdir hayrona.
Guldor ro'mol dastidan,
Bo'ldi qalbim vayrona.

TAQDIRIMGA...

Muhabbatning yoshidan
O'tib bo'lganda yoshim.
Hijron atalmish toshdan,
Yorilgan mayus boshim.

Armonli bu dunyoda,
Yo'qdur bitta sirdoshim.
Yolg'izlikda o'tar umr,
Tugamoqda bardoshim.

Do'stlar sotdi sirimni,
Tashlamay ko'z qirimni.
Ishq bog'idan ayrildim,
Orzu qilib qirimni.

Yurmoq azobli ekan,
Bu xayotning so'qmog'i.
Dilni yomon og'ritdi,
Ayriliqning to'qmog'i.

Bo'ldi bas yuragimdan,
Ishqni yulib otaman.

Sevish yoshidan o'tdim.

Endi axir otaman.

To'rt qiz farzandni berdi,

Menga taqdiri azal.

Armonli muhabbatdan,

Shu qizlarim menga afzal.

Mayli xayot yo'lida,

Cheksam chekayin zahmat

Lekin to'rtta qiz bergan,

Taqdirimga ming rahmat.

YURAK NECHUN...

Qandayligin bilmaysan,
Meni buncha qiynaysan.
Men uni sevaman deb,
Yurak nechun yig'laysan.

Sevmas axir berahm,
Sevgida achchiq tahm.
O'ylab qilib sen fahm,
Yurak nechun yig'laysan.

Daryoda oqdi Tohir,
Sevgisi bo'lib zohir.
Sevishda o'zing mohir,
Yurak nechun yig'laysan.

Qo'y dilimni qilma qon,
Davosizdir ishq xijron.
Endi bizga yor armon,
Yurak nechun yig'laysan.

HAYOT

Daryo bo'lib oqadi xayot,
O'tib borar umr suv kabi.
Anduxlardan bo'lmoqda ado
Odamzotning metin asabi.

Yo'llar uzun manzilim olis
Armonlarim qalbimda pinxon.
Visol bog'i qilindi payxon,
Bog'da so'ldi atirgul rayhon.

Ishq g'unchasi ochilmas endi,
Bulbullar ham honish etmaydi.
Yillar o'tib ketsa ham suvday,
Armon dildan o'chib ketmaydi.

MEHR

Muhabbatga alvido dedim,
Orzularga siltab qo'limni.
Ketmoqdaman olis-olisga,
Mehr tomon burib yo'limni.

Shoirmanda devonasifat,
Lek qalbim vijdonim toza.
Sevgi haqda bitsamda bayot
Nomim tilda bo'lmas ovoza.

Xoxlamayman mashhur bo'lishni,
Sahnalarda guldek so'lishni.
Sog'inishib zor bo'lgan chog'i,
Farzandlarim ko'rmay o'lishni.

Ona yurtim o'g'il-qizlarin,
Satrlarda qilaman tarif.
Bor mehrimni she'rlarda yozib,
Bolalarga qilaman sarf.

ONA

Men dunyoga hoqon bo'lsamda,
Bosh egaman onam poyiga.
Iloji gar bo'lsa qaniydi
Aylamardim ichgan choyiga.

Bitta ona bir kunda qilgan ishini,
Bir yilda bir erkak qilolmas.
Ona bardosh bergan kulfatga,
Ishoningki bir soniya farzand chidolmas.

Sochidagi bitta oq tola,
Jannatlarga bo'lar arg'imchoq.
Poyidagi jannatni olar
Onasiga kim ochsa quchoq.

KO'NGLIM TO'Q

Men bir ojiz bandaman,
Oddiy qul arzandaman.
Xayotdan alamim yo'q
Taqdirimdan ko'nnglim to'q.

Qishmi baxor farqi yo'q,
Kuzmi bo'lsin yoki yoz.
Xayotimiz yo'llari
Bo'lmasin sovuq ayoq.

Ko'nnglimiz gunoxlardan,
Bo'lmasin tutunday kir.
Taqdirimdan ko'nnglim to'q,
Olloximga ming shukr.

QISHDAGI SEVGI

Qor yoqqan kechalar,
Sog'indim seni farishtam.
Ammo kelmading bir bor,
Dilga berib sen sitam.

Ko'ksimdan otildi faryod,
Nolayu fig'on alamli oxlar.
Vaslinga mushtoqlik ahdi,
Qalbimni hijronda dog'lar.

Yuragitosh sitamgarmisan,
Shunchalar firibgarmisan.
Izg'irinda qoldirding yolg'iz
Ertakdagi jodugarmisan.

Hijron faslin shamollaridan
Ayriliqda so'lib boryapman
Qishda sevish azobli ekan,
Suvdek muzlab qolyapman...

SEVGI...

Bu olam jaxonda yagona sevgi,
Javohir gavharday durdona sevgi.
Gohida achchiqdir gohida shirin,
Ammo ta'm yoqimli nordona sevgi.
Hijronga engilar goh mag'lub bo'lib,
Firoqqa bosh eggan ordona sevgi.
Majnunni sahroda darbadar etgan,
Telbalar aylagan devona sevgi.
Dillarni qon qilib poralar etgan,
Gohida koshona gohida vayrona sevgi.
Oshiqni mashuqqa fido jon qilgan,
Visolga kelganda hayrona sevgi.

YOLG'IZLIK

Hayollarim parishondir
parokanda o'ylarim.
Fig'onlarga bastalandi,
Muhabbatli kuylarim.

Otash bo'lib yonmoqdadir,
Mening oshiq yuragim.
Kuygan dilni kelmoqdadir,
Ishq to'riga o'ragim.

Netay e vox hijronlarda,
Holim zabun dil yolg'iz.
Qalbimni qon ayladi ox,
Sevganim bevafo qiz.

Ko'nglim yig'lar qon bo'lib,
Yor vasli armon bo'lib.
Bedavo bu ishq dardiga,
May ta'mi darmon bo'lib.

Devonaman muhabbatdan,
Yurak bag'ri vayronaman.
Yolg'izlikda sarob sevgi,
Bilan qolgan hayronaman.

Qiyo boqmay ketdi sanam,
To'lib toshdi dilda alam.
Satrlarga yozolmasdan,
Dardni qo'lida sindi qalam.

YANGI O'ZBEKISTONDA

Umr o'tib boraverar,
O'tar shonli bu xayot.
Biz yashaymiz xayotda,
Ezgulikni qilib yod.

Ezgulik mangu bo'lsin,
Ona yurt makonimda.
Bahtni ta'rif etaman,
Yozgan har dostonimda.

Yangi yilning shukuhi,
Yashar bu hur bo'stonda.
Bahtli bo'lib yashaylik,
YANGI O'ZBEKISTONDA!

MAJNUN EMASMAN

Baxor fasli yarimlab qoldi,
Qor yog'moqa to'xtamay hamon.
Sokinlikda o'tmoqda kunlar
Chiroy ochib kulmoqda zamon.

Ey tog'larning bag'ridagi gul,
Qorlar erib qachon gullaysan.
Muhabbatning mangu qo'shig'in,
Bor ovozda qachon kuylaysan.

Men oddiy bir shoir qalamkash,
Go'zallikni tarif etaman.
Faqatgina pok dillar uchun,
Haq sevgini tavsif etaman.

Balandparvoz gaplar aytmayman,
Shiorimdir xokisor bo'lmoq.
Xalol yashab foniyl dunyoda,
Oxiratda jannatiyl o'lmoq.

Sahovatga men davogarman,
Sahiy inson bo'lish niyatim.
Yahshilik qib yashayman ado,
To bo'lguncha tanda quvvatim.

Burgut bo'lib uchmayin mayli,
Qir lolasin quchmayin mayli.
Sevmasa-sevmasin meni layli,
Sevgi sharbatini ichmayin mayli.

Men emasman sevgi qiroli,
Nasib etmas menga xijron visoli.
Lek yor vasli bo'lmasin armon,
Tutmasa bas ishqning uvoli.

Muhabbatning poyi mustahkam,
Qurgan edim toshidan duvol.
Gado bo'lib o'lsam roziman,
Faqat sevgim topmasin zavol.

Yo'l yuraman sarhadlar oshib,
Nomalum bir manzilga shoshib.
Xayajonim sig'may ko'ksimga,
Yuragimdan ketmoqda toshib.

Men sevgida majnun emasman,
Tog'lar teshgan farxod emasman.
Ishq suratin dilga naqsh etgan,
Kamoliddin Begzod emasman.

O'tli qilichini ko'tarib kelsa,
Firog'iyga chiqaman peshvoz.
Chunki men bir faqir qalamkash,
Qalam tutgan shoirman xolos.



O'TKIR HOSHIMOV

Ikki eshik orasida,
Robiya yig'lar edi.
Umar zakunchi uni,
Qalbini tig'lar edi.

Yorga sadoqat bilan,
Yashab o'tgan Qumrilar,
Juda zo'r yozilgandi,
"Tushda kechgan umrlar"

Malhamdek bo'lgan edi,

Dardli dillar davosi.
Sof samimiy va ilk,
Yozilgan "Cho'l xavosi".

Goho shirin goh achchiq,
Turmushning tashvishlari.
Ona haqda yozilgan,
Ex "Dunyoning ishlari".

Har bitta asarida,
Yolg'on so'zni aytmaydi.
Joyi jannatda bo'lsin,
Endi "Baxor qaytmaydi.

Har bir yozgan asari,
Ajoyib kuy ham soz edi.
Adib O'TKIR HOSHIMOV,
Bizlarga Ustoz edi.

Bu buyuk Yozuvchini,
Qilaversam gar ta'rif.
Bir olam doston bo'lar,
Yozmoqqa etmas harf.

AYOLIM

Tip tiniq osmondagi,
Uchgan turnalar kabi.
Uchib ketdi xayolim,
Sen tomonga ayolim.

Ishqni yaxshi bilaman,
Vafodor yor bo'laman.
O'lsam sendeb o'laman
Sen borimsan ayolim.

Bahsh etay senga borim,
Sensan mening baxorim.
Kuylar seni ishq torim,
Yagonamsan ayolim.

NOMI O'CHSIN

Quoshni qoraytirgan,
Dunyoni toraytirgan.
Odamni qartaytirgan,
Urushni nomi o'chsin.

Bollarni etim qilgan,
Qahrni metin qilgan.
Qalbni chetini tilgan,
Urushni nomi o'chsin.

Kelinlarni tul qilgan,
Qadrini bir pul qilgan.
Orzularni kul qilgan,
Urushni nomi o'chsin.

DEPUTATGA...

Odamlar turnaqator,
Navbat kutadi uzoq.
Molga balo bormidi,
"P" niyam bilmas buzoq.

Xalq sizga yozsa agar,
O'qimaysiz bitta hat.
Molga pasport kerakmas,
Bilib qo'ying deputat.

Emlab boqilgan buqa,
Ko'tarolmas to'shini.
Qo'lingizdan kelsa gar,
Arzon qiling mol go'shtini.

Ma'ntiq qani gapingizda,
Mol pasportga zormidi.
Pasportstol degan joyda,
Molga balo bormidi?...

BONUJON

Iffatini sotmagandi Bonujon,
Xarom bilan yotmagandi Bonujon.
Hatto sharob ichmagandi Bonujon.
Vatanidan kechmagandi Bonujon.
Mol dunyoga uchmagandi Bonujon.
Begonani quchmagandi Bonujon.
Birkun tinim bilmagandi Bonujon.
Hech hiyonat qilmagandi Bonujon.
O'z yurtida o'z qadrini topolmadi Bonujon,
Armon bilan ona poyin o'polmadi Bonujon.
Eh Bonujon Bonujon
Iffatini sotmagandi Bonujon...

ODAMLAR

Muhabbatni ehtiros qildi,
Gunohlarni dilga hos bildi.
Har amalni tilga mos qildi,
Homsut emgan odamlar.

Pulga juda mehr qo'ydilar,
Gunohdan muhr qo'ydilar.
Zino uchun mahr qo'ydilar,
Homsut emgan odamlar.

Boylik balogard bo'lolmas,
Vabolardan qutqaraolmas.
Umr bo'lsa bu jon o'lmas,
Unutgandi buni odamlar.

Tavbalarni unutishgandi,
Gunoh qo'lin tutishgandi.
Iymondan ham o'tishgandi
Oqibatsiz bo'ldi odamlar.

Otalarga musht otdilar,
Chaqalog'in pulga sotdilar.
Aroq ichib alast yotdilar,

Gunohlarga botdi odamlar.

Unutdilar farz va sunnatni,

Bunga olloh virus jo'natdi.

Halollikni qayta o'rnatdi,

Tavba qiling endi odamlar.

YOSHLIK QAYTMAYDI

O'tsa o'tsin bu umr,
Ketsin dilimdan quvonch.

O'chib ketsin roziman,
Qalbimdan mangu ishonch

Armon bo'lsin mayliga,
Alamli ishq nolasi.
Qurib bitsin xazonday,
Muhabbatning lolasi.

Qolmasin ishqdan nishon,
Bag'rim bo'lsin mayli qon.
Baridan kechdim shu on,
Chun hijron qo'ymas omon

Bas dilni qiynamayman,
Visol deb tig'lamayman.
Sevgim yolg'on emas deb,
Ishon deb yig'lamayman.

Shuncha sevganim etar,
Yonib kuyganim etar.
Visolning achchiq ta'min,

Qirq yil tuyganim etar.

Oxlarim endi falak uzra,

Borib oyga etmaydi.

O'tdi hijronli yillar,

Endi yoshlik qaytmaydi.

ROSSIYADA ISHLAYDI

Rossida ham o'zbek,
Yapon qozoqda o'zbek.
Hamma joyga mardikor,
Bo'lib bormoqda o'zbek.

Eng zo'r rejisyorlar ham,
Hushovoz artistlar ham,
Chaqqon futbolistlar ham,
Rossiyada ishlaydi.

Oliy ma'lumoti bor,
Uyda qo'y mol oti bor.
Tani sog' savlati bor,
Rossiyada ishlaydi.

Farzand voyaga etgan,
Alamni ichga yutgan.
O'ziyam qarib ketgan,
Rossiyada ishlaydi.

Erta to'y qilish kerak,
Elga osh berish kerak.
Qiz baxtin ko'rish kerak,

Rossiyada ishlaydi.

Bollar katta bo'layapti,
Kim kontrak to'layapti.
Umr o'tib ketayapti,
Rossiyada ishlaydi.

Kimdir uy solish kerak,
Kimdir qarz to'lash kerak.
Yo'qsa pul so'rash kerak,
Rossiyada ishlaydi.

Goh och goh to'qligidan,
Toqati toqligidan.
Iloji yo'qligidan,
Rossiyada ishlaydi.

G'AM

Yuragimda azobli alam,
G'am dilni qilyapti pora.
Turmush og'ir o'tmoqda
Yo'qchikka yo'qdir chora.

Xayotimda g'ariblik hokim,
Telbalikda o'tmoqda umr.
Chorlar meni ohirat qabr,
Tugamoqda dildagi sabr.

Ketay mayli kafanni o'rab,
Boshdan g'am qorin kurab.
Gunohim avf etgin yo rab,
O'lay mayli shularni so'rab.

Bu dunyoni olov armoni,
Dilni yoqib qalbimni tig'lar.
O'lsam ortimdan bo'zlab,
Meni faqat qizlarim yig'lar.

G'amlar dilim etdi vayrona,

Alamlardan ko'zim jayrona
Umr so'ndi to'ldi paymona,
Rozi bo'ling alvido ona...

BEG'UBOR O'ZBEKISTON

O'tmoqda avlodlar aytib,
Buhoriy bobomiz deya.
Ammo qilmasdan amal,
Hadisga surtishib kuya.

Internetdan izglab ilmni,
Gunohga bulg'ashdi dilni.
Ajdodlar ila maqtanib,
Aldashdi vijdon ko'ngilni.

Bir rakat nomoz o'qishmas
Buhoriyga qilishar da'vo.
Dunyoga jar solib hannos,
Bevatanlikni ko'rdilar ravo.

Yurakdan sug'urib otdilar,
Bobosi mirzo Bedilni.
Osdilar Mashrabni aldab,
Ko'rsatib arqon deb qilni.

Eh tarixni varaqlayversak,
O' qancha nohaqliklar bor.
Sho'rolar buyrug'ini jim,

Bajargan gumrohliklar bor.

Agarchi chiqmasa edi,
O'zimizdan sotqin hoinlar.
Bo'lmasdi o'qqa nishonlar,
Osilmasdi Dukchi Eshonlar

Nosirlar muzlamas edi,
Otilmasdi shoir Cho'lponlar
Etmish ikki yil ojizlik uchun
Bermasdi yurtim o'lponlar.

Hay mayli yurt endi ozod,
Jafokash el oqil bo'ldi.
Beg'ubor hur O'zbekiston,
Ozod yurt mustaqil bo'ldi.

AYTING QACHON

Aytingchi ey vatandosh,
Biz qachon boy bo'lamiz.

Qozoq o'ris karisga
Qancha qullik qilamiz.

Ishlash uchun pul uchun,
Rassiyaga ketamiz.
O'rislarni aytinglar,
Biz qachon ishlatamiz.

Qadri yo'q so'm tangani,
Qachongacha ko'mamiz.
Qadrliroq bo'lar dollirdan,
Qachon bizning so'mimiz.

Uchming dollir ishqida,
Qizlar tegib ketyapti.
Koreyaga pul uchun,
Ota qizin beryapti.

Musofirlikda yurgan,
Qancha mehnatsevar bor.
Eshshakday ishlashsada,

Ularning holi abgor.

Birin rus so'kib tashlar,
Rusni itiyam tishlar.
Ayting qachon horijlik,
O'zbekistonda ishlar.

O'zga yurt odamlari,
Honlikda edi cho'pon.
Hatto Amir Temurga,
Ruslar to'lardi o'lpon.

Endi yahshilab qarang,
Rusda million o'zbek bor.
Ammo ularning ko'pi,
Rassiyada mardikor.

YASHANG...

Moskva sitini qurgan,
Tongsahar uyqudan turgan
Rusiyada g'ish terib yurgan
Yashang o'zbek ishchilari.

Sahalinda qor kuraganlar,
Turmush deb qaltiraganlar.
Bitta 'kal' deb yaltiraganlar
Yashang o'zbek ishchilari.

Adovatni dildan so'ndirgan
Yaxshikka rusni ko'ndirgan
Qiz sepiga dollir undirgan,
Yashang o'zbek ishchilari.

Yozda turkfimaga ketgan,
Onalarni qadriga etgan.
Sog'inchini ichiga yutgan,
Yashang o'zbek ishchilari.

O'zin ishga bahsh etgan,
Pul topishni ahd etgan.
Rusni jangsiz zabt etgan,
Yashang o'zbek ishchilari.

AMERIKAGA KETGANLAR

Orzu qilishib g'arbni,
Yurtdan kechdirib qalbni.
Buzishib ketdi asabni,
Amerikaga ketganlar.

Qirq kokillar o'rmasdan ,
Boshga ro'mol o'ramasdan
Otasidan so'ramasdan,
Amerikaga ketganlar.

Bir kuni hor bo'lishadi,
Vatanni sog'inishadi.
Pushaymonlar qilishadi,
Amerikaga ketganlar.

Anorlarin sog'inadi,
Gul bog'larin sog'inadi.
Qir-tog'larin sog'inadi,
Amerikaga ketganlar.

Onalari zor yig'lashar,

Ota bag'rin tig'lashar.
Bilmam qachon qaytishar,
Amerikaga ketganlar...

KO'RIB KELAMIZ

Yur dostim ko'ngil bog'iga,
Sevgini ko'rib kelamiz.
Holi qanday yahshi ekanmi
Sevgidan so'rab kelamiz.

Ko'ngillarda nimalari bor,
Mehrli ishqning jilvalari bor
Sevgi parisini ishvalari bor,
Yur do'stim ko'rib kelamiz.

Kuygandir hijron dog'ida,
Ilk bora sevgan chog'ida.
Yongandir yor firog'ida,
Yur do'stim ko'rib kelamiz.

Dardiga davo bo'laylik,
Dil vasfi safo bo'laylik.
Sevgiga biz vafo bo'laylik,
Yur do'stim ko'rib kelamiz..

ONAM

Menga mehr bermoqchun,
Umrin bedor o'tkazgan.
Yillab orom olmasdan,
Balog'atga etkazgan.

Qalbimdagi durdonam,
Xayotimda yagonam.
Qalbi daryoday lim-lim,
Poyi jannatim onam.

Roddomda jonin tikkan,
Bolam deb fig'on chekkan.
Dilga sahiylik ekan,
Jonfido jonim onam.

Ming yil umr ko'rsamda,
Uzilmas sizdan qarzim.
Ammo yodimdan chiqmas,
Onam farzandlik farzim.

Poyi jannatim onam,
Bori davlatim onam.
Baxtinga omon bo'ling,
Mehri san'atim onam.

USTOZ OTAM

Iymondan o'git bergan,
O'g'lim ibodat qil degan.
Faqat xalol rizq egan,
Pokdomon Ustoz Otam.

Odobdan suv ichirgan,
Har aybimni kechirgan.
Osmonlarda uchirgan,
Mardu maydonim Otam.

Rabbim ismin tanitgan,
Hafa qilsam unutgan.
G'am anduhim aritgan,
Najotkor vijdon Otam.

Ota bo'lib bildim qadrin,
Buyukdir bildim sabrin.
Mehribon orim Otam,
Qat'iy qarorim Otam...

YUR DO'STIM

Qadrdonim dunyoni bir,
Aylanaylik yur do'stim.
Qayda faqir miskin bor,
Qayishaylik yur do'stim.

Etim esir qashshoq bor,
Qorni och mashshoq bor.
Tomorqasi toshloq bor,
Qayishaylik yur do'stim.

Serfarzand honadon bor,
Donsiz bo'sh bordon bor.
Soqqasiz chomadon bor,
To'ldiraylik yur do'stim.

Usti hupun yalang'och,
Bir kaft unsiz qorni och.
Savob ishga qo'lni och,
Non beraylik yur do'stim.

Biz neishchun qimmatmiz,
Kimga sahiy himmatmiz.
Muhammadga ummatmiz,
Savob qilaylik yur do'stim..

XABARDORMISIZ?

Bolalikda opichib yurgan,
Otangizdan habardormisiz.
Uhlamasdan allalar aytgan
Onangizdan habardormisiz

Hotin uchun olamiz palto,
Ilinmaymiz onaga paypoq.
Otamizni tufllisin kiyib,
Ko'chada, yuramiz sayoq.

Kafe barda qilib maishat,
Ota uyda ichar mastava.
Yillab mehr oshini kutgan,
Ona esa ichadi sho'rva.

Onani ham eslab turinglar,
Restoranni sotib olganlar.
Otani ham yo'qlab turinglar
Hirixonada yotib qolganlar

Qarimoqda ota-onalar,
Chiqillaydi soat millari.
Kontrakni to'lang o'zingiz,
Ey unibersitet talabalari.

Nafaqasini o'zi esinlar,
Baraka top bolam desinlar.
Sizdan fahr qilib yursinlar,
Hoji bo'lib yuzga kirsinlar.

Otalardan habardormisiz,
Onangizdan habardormisiz
Otangizni bir borib ko'ring,
Onangizni bir borib ko'ring.

QAYTING

Odamlar nega yig'laydi,
Ojizlikni bilishmas ahir.
Yaratganning buyrug'i ila,
Tug'ilmay yozilar taqdir

Nega men badavlat emas,
Nega meni omadim kemas
Nun meni qadrim bilinmas,
Hayot negabaxtni ilinmas.

Bilasizmi nechun birodar,
Siz taqdirdan nolib yurasiz
Dunyoga mehringiz qo'yib,
Ibodatsiz bo'lib yurasiz.

Noliyvermang aziz birodar,
Ollohimga shukrlar ayting.
Dunyoga ko'ngilni bermay,
Shukronalik yo'lga qayting

ERKIN VOHIDOV

Bolalikda kitob varaqlab,
Gar o'qisak dostonlarini.
His qilardik odamiylikni,
Kezib nazm bo'stonlarini.

O'zbekimni bitgan paytlar,
Ko'ngildan joy oldi baytlar.
"Nido"dan aks-sadolar,
Bermoqda inter-saytlar.

Ustozni buyuk istedod ila,
Siylagan umr taqdiri azal.
Navoiy bobodek bo'lib bitti,
Ygirmanchi asrda g'azal.

KO'HNA O'LKA

Nene tajovuzlar ko'rdi,
Yuz yil qullik duvol qurdi.
Zulm unda hukm surdi,
Ko'hna o'lka Turkistonda.

Payhon qildi mingtepani,
Qopqora qildi oqtepani.
Vayrona etdi choshtepani,
Ko'hna o'lka Turkistonda.

Dukchi Eshon qo'ndi dorga,
Ketdi Fitrat qandahorga.
Xalq aylandi mardikorga,
Ko'hna o'lka Turkistonda.

Oqpodshoga qildi tazm,
Buyuk o'zbek xalqi azm.
Bu ho'rlikni qildi hazm,
Ko'hna o'lka Turkistonda..

SHOIRNING QALB NIDOLARI

SHOIR QALBIY

I

KUYLAR SENI ISHQ TORIM,
YAGONAMSAN AYOLIM.

Abdulaziz Mamadaliev